



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Qosimov Abdulxay

*Farg'ona davlat universiteti Amaliy ingliz tili o'qituvchisi*

## INGLIZ BADIY ADABIYOTIDA METAFORALARNING O'RNI VA TAVSIFI

### Annotatsiya

Metaforalar voqealarni gavdalantirish, kayfiyat yoki shunchaki fikrni ifodalashda qo'llanilishi mumkin. Oddiy metafora o'quvchi yoki tinglovchiga asardagi voqealar haqida ko'proq ma'lumot berishi mumkin. Metaforalar badiiy adabiyotda o'z o'rniga ega. Shuni alohida ta'kidlash joiz, badiiy adabiyotda metaforalarni ko'p qo'llash, asarning sifatiga va uning ma'no-mazmuniga ta'sir qilishi mumkin. Chunki, ba'zi metaforalar berilayotgan tasvirni o'ta kuchli yoki aksincha kuchsiz tarzda tasvirlaydi. Bu esa o'quvchiga asarning tub ma'nosini eng yaxshi tarzda yetkaza olmaydi [1].

**Kalit so'zlar:** Metafora, badiiy obraz, tabiiy voqeliklar, instiktiv va hissiy tuyg'ular, "mo'jizaviy vosita".

### Kirish.

Adabiyotdagi eng mashhur metaforalardan biri Uilyam Shekspirga tegishli: "Bizning olamimiz - bu sahna, barcha erkaklar va ayollar shunchaki aktyorlardir...("All the world's a stage, and all the men and women merely players")[6]. Ushbu metaforada Shekspir bizni o'rab turgan olamni sahnaga taqqoslab, insonlarni esa aynan mana shu sahnada rol o'ynovchi aktyorlarga qiyoslaydi. Shekspir o'z asarlarida o'quvchi ongida fikr va tuyg'ularni uyg'otish, ifodalamoqchi bo'lgan obrazning teranligini anglash imkonini beruvchi metaforalardan foydalangani bilan mashhur. Biror narsa tilga olinadigan yoki unga o'xshash narsa bilan taqqoslanadigan nutq figurasi bo'lgan metafora yashirin taqqoslashni amalga oshiradi. Jon Grin o'zining "Yulduzlarimiz aybdor" asarida "Mening hayollarim yulduzlardir, men esa yulduz turkumlarini tushunolmayman" (**My thoughts are stars I**

cannot fathom into constellations) [2], deya iqtibos keltirgan. Bunda Jon Grin o'zining hayollarini va o'ylarini tushunish qanchalik murakkab ekanligini yulduz turkumlarining murakkabligiga qiyoslamoda. Ba'zan yozuvchining metaforalardan ustamonlik bilan foydalanishi bizda asar va asarda yuz bergan voqealar haqida yorqin taassurotlar beradi. Metaforik til tasavvurni faollashtiradi va yozuvchiga metafora orqali his-tuyg'u va taassurotlarni etkazish osonroq bo'ladi. Metafora standart lug'at mavjud bo'lmagan nozik farqlarni ifodalaydi va o'quvchilarni mavhum fikrlashga undaydi.

Umuman olganda, ko'pchiligimiz kundalik hayotda metaforalardan foydalanamiz va ko'pincha biz ularni sezmaymiz, chunki ular bizning lug'atimizning bir qismiga aylangan. Masalan, "qozonning qulog'i", "arraning tishi", "Toshkentni ulab bering", "ariqning labi", "ko'chaning boshi", "shamol bo'lmasa daraxtning uchi qimirlamaydi" va boshqalar. Biz ushbu metaforalardan shunchalik ko'p foydalanamizki, ular hayotimizdagi har kunlik oddiy so'z yoki iboralarga aylanib qolgan. Nega biz suhbatlarimizda bu metaforalardan foydalanamiz? Albatta ushbu so'zlar bizga voqea yoki hodisalarni tez va aniq ifodalash uchun eng yaxshi vositadir. Xuddi shunday sabablarga ko'ra, yozuvchilar ham fikrni, his-tuyg'ularni kuchli tavsif bilan ifodalash, badiiy asardagi to'qima hodisalar yoki voqealarning qay darajada jiddiyligini tushunishga yordam berishi uchun metaforalardan foydalanadilar.

### **Metaforaning g'arb adabiyotidagi o'rni.**

Bugungi g'arb adabiyotida yozuvchilarning qay darajada o'quvchilarni o'ziga rom qilishi, ularning badiiy asarda qo'llanilgan so'zlarning tarkibi bilan bog'liqdir. Agar siz yozuvchi bo'lsangiz, siz mavjud metaforalardan foydalanmasligingiz lozim. Haddan tashqari ko'p qo'llaniluvchi metaforalardan foydalanish asar sifatiga keskin ta'sir qiladi. Sababi ushbu metaforalar o'quvchidan voqea yoki hodisani tushunish, yoki anglash uchun o'z tasavvurini qo'llashni talab qilmaydi. Yangi metaforalardan foydalanish yozuvchining asariga o'zgacha ko'rkamlik bag'ishlaydi va bu asarning originallik darajasini oshiradi. Yozuvchining eng kuchli qobiliyatlaridan biri bu o'z fikrini esda qolarli, ishonchli so'zlar orqali ifodalashdir. Metafora kabi ijodiy adabiy vositadan foydalanish yozuvchiga o'z asari orqali o'quvchiga ta'sir ko'rsatishga imkon beradi. Ulardan samarali foydalanilsa, metaforalar hamma narsani o'zgartirish va o'quvchi ongida ijodkorlikni ilhomlantirish imkoniyatiga ega. Metafora yozuvchi "arsenal" idagi kuchli vositadir. Metaforalardan unumli foydalanish o'quvchilarda yozuvchining ijod mahsuliga instinktiv va hissiy darajada munosabatda bo'lishiga yanada ko'mak beradi.

Metafora yordamida yozuvchi o'ziga xos o'xshashliklarni yaratishi va narsalarning qanday ko'rsatilishiga tekstura va qiziqish qo'shishi mumkin, bu haqiqiy tavsifdan ko'ra yaxshiroq tushunishimizga yordam beradi. Yozuvchiga kuchliroq tasvirlash imkoniyatini berib, metafora kuchli ta'sir va doimiy taassurot yaratadi. Metaforalardan foydalanish yozuvchiga tush tasvirlarini yaratishga va so'zlarni chiroyli ta'sir qilish uchun ishlatishga imkon beradi. Metaforaning o'quvchiga ta'siridan biri shundaki, lug'aviy ma'nodan ko'ra ko'proq ma'noga ega bo'lgani uchun u o'quvchiga biror narsani har qanday so'zma-so'z ta'rifdan ko'ra chuqurroq tushunishga majbur qilishi mumkin.

She'riy tildagi metaforalar bevosita his-tuyg'ularga taalluqli bo'lib, shoirlarning metaforalarni ko'p qo'llashining sabablaridan biri oddiy tilda ifodalab bo'lmaydigan narsalarni tasvirlashdir. Bu shunchaki tildan samarali foydalanish emas - bu yozuvchining individual ovozi va uslubini yaratishga yordam beradi. Metaforaning ta'siridan biri xatni esda qolarli qilishdir. Tilni yanada rang-barang va qiziqarli qilish orqali u o'quvchini o'ziga jalb qiladi, xushnud etadi yoki biror narsani butunlay yangi nuqtai nazardan ko'rishga

majbur qiladi. Metafora-bu tushuncha yaratishga yordam beradigan psixologik va adabiy vositadir. Bu yozuvchiga o'quvchining ongini sezdirmay boshqarish uchun so'zlardan foydalanish usulidir. Metafora yozuvchiga o'quvchilar yozilgan narsalarni qanday qabul qilinishini nazorat qilish imkonini beradi.

### **Ingliz adabiyotida qo'llanilgan metaforalar.**

Amerikalik shoir Emili Dikkinson o'zining she'rlarida metaforalardan ustamonlik bilan foydalangan. U o'zining **“Hope is the thing with feathers”** [4] she'rida umidni majoziy ma'noda inson qalbida yashovchi kuchli, irodali qushga taqqoslaydi va bu qush inson qanday holatda bo'lmasin o'zining kuyini chalishdan to'xtamasligini aytadi. Aslida shoir bu bilan insonning qalbidagi umidning kuchini va uning insonlarning hayotidagi o'rnini ta'kidlab o'tadi. Umid inson har qanday qiyin vaziyatlarda ham unga qorong'ulikdagi mash'ala singari yorug'lik ekanligini tushuntirmoqchi bo'ladi.

Villiam Golding o'zining **“Pashshalar hukmdori”** asarida esa tabiatning tabiiy hodisasi - quyoshning botishini ajoyib tarzda tasvirlaydi. **“The sun in the west was a drop of burning gold that slid near and nearer the sill of the world.”**[3] **“Quyosh yonayotgan oltinning bir parchasidek yer qa'riga g'arq bo'ldi.”** Bu yerda yozuvchi quyoshni ufqqa botishini oltinning erib tushayotgan qizg'ish tomchisiga o'xshatmoqda. Albatta bunda o'quvchi ongida tabiatning ushbu hodisasini yanada jonliroq va jozibaliroq namoyon qilish uchun yozuvchi shunday badiiy tasvirlardan ustamonlik bilan foydalangan.

Villiam Shekspirning yana bir mashhur asari **“Romeo va Julyetta”** asarida ham Shekspir o'zining yana bir bor metaforalarning qo'llanishida tengsiz ekanligini isbotlaydi. **“But soft, what light through yonder window breaks? It is the east, and Juliet is the sun!”**[5] Ayvonning peshtoqida turgan Romeo oynadan qarab turar ekan, shu onda Julyettani ko'rib qoladi. Tunning yarmi bo'lishiga qaramasdan, Romeo Julyettaning ko'zni qamashtirguvchi chiroyini ko'ra oldi. Aynan manashu onda Romeo uning yuzini quyoshga, tunning qorong'uligini esa yorug'lik o'tkazmas oynaga qiyoslamoqda. Ammo quyoshning nurlari shunday holatda ham nur sohib ko'zni qamashtirmoqda. Bunda yozuvchi o'quvchining ongida Julyettaning naqadar go'zalligini tushuntirmoqchi bo'ladi.

Jon Grin ham quyoshning botishini badiiy obrazda tasvirlar ekan, quyoshni xuddi uxlashni xoxlamayotgan go'dakka qiyoslab, soat sakkiz yarim bo'lishiga qaramay yorug' ekanligini o'quvchilarga mohirona tarzda tushuntirib beradi. **“The sun was a toddler insistently refusing to go to bed: It was past eight thirty and still light”**[2] Bundan ko'rinadiki, kun oxirlab tun kirmoqda, quyoshning botishi yosh bolaning injiqliklariga o'xshatilmoqda. Bunda yozuvchi badiiy asar qahramonining tun kelishini qanchalik intiqlik bilan kutayotganini tushuntirmoqchi bo'ladi.

Kate Chopin o'zining **“Bo'ron”** asarida insonning dilga yoquvchi so'zlarini majoziy ma'noda **“zavq ulashuvchi favvora”** ga qiyoslaydi. **“Her mouth was a fountain of delight”**[1] Uning so'zlari tinglovchiga shunchalik manzurki, buni shunchaki oddiy so'zlar bilan tushuntirib bo'lmaydi. Yozuvchi esa ushbu holatda badiiy metaforadan foydalanib, o'quvchining ongida o'zaro munosabatlarning qay darajada yaqin ekanligini tushuntirmoqchi bo'ladi.

### **Xulosa.**

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, metaforalar badiiy asarlardagi voqealarni jonli va jozibaliroq tarzda gavdalantirishda muhim o'rin tutadi. Stiven King o'zining **“Kitobni**

qanday yozish kerak” asarida metaforalarning badiiy adabiyotdagi o’rmini ta’riflar ekan, ular o’quvchilarga “eskini yangi va yorqin ranglarda ko’ra olishga “imkon beradi deya hisoblaydi. Ya’ni bir voqeani shunchaki tasvirlash, yoki unda metaforalardan foydalangan holda yanada yorqinroq tasvirlash mumkin. Stiven King metaforalarni yozuvchi va o’quvchi o’rtasidagi o’zaro bog’lovchi “mo’jizaviy vosita” sifatida ta’riflaydi.

So’zlarning lug’aviy ma’nolari bilan asardagi voqealarni tasvirlab berish mumkin, ammo uning qay darajada tushunilishi asosiy muammo hisoblanadi. Birgina kichkina xatolik, o’quvchining asar haqidagi fikrlarini butunlay o’zgartirib yuborishi mumkin. To’g’ri qo’llanilgan metaforalar, asar ko’rkiga ko’rk qo’shadi. Bugungi kunda har bir yozuvchi asarda metaforalarning qo’llanilishi qay darajada muhim ekanligini bilishi lozim. Xulosa qilganda, metaforalar badiiy adabiyotning eng asosiy ‘qurollar’idan biri hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Chopin, Kate, 1850-1904. *The Storm, and Other Stories : with The Awakening*. Old Westbury, N.Y. :Feminist Press, 1974.
2. Green, John. *The Fault in Our Stars*. Penguin Books, 2013.
3. Golding, William. *Lord of the Flies*. London: Faber and Faber, 1954. Print.
4. Starer, Robert, and Emily Dickinson. *Hope Is the Thing with Feathers: For Chorus, S.a.t.b. a Capella*. Melville, N.Y: MCA Music, 1977.
5. Shakespeare, W. (1993). *Romeo and Juliet*. Dover Publications.
6. Shakespeare, William, and Horace H. Furness. *As You Like It*. New York: Dover Publications, 1963.